

TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA INTERFAOL

METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

POSSIBILITIES OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE

PROCESS OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION

Rafikova Dilafruz Kaxxoraliyevna¹

Abdug'aniyeva Donoxon²

¹*Farg'onan davlat universiteti, p.f.b.f.d.(PhD)*

²*Pedagogika –psixologiya fakulteti 21.20-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda: Tarbiya fani dars jarayonida o'quvchilarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda innovatsion ta'limgan texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik,yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, innovation texnologiya, ta'limgan-tarbiya, didaktik vosita, ta'limgan samaradorligi.*

Аннотация: В данной дипломной работе раскрываются важные аспекты эффективного использования инновационных образовательных технологий в формировании трудового воспитания студентов на уроке педагогики. На примерах доказывается необходимость учитывать психологические и возрастные особенности учащихся при использовании дидактических средств.

Ключевые слова: педагогическая технология, инновационная технология, образование, дидактический инструмент, эффективность обучения.

Abstract: *In this thesis, the important aspects of effective use of innovative educational technologies in the formation of labor education of students during the education science lesson are revealed. The need to take into account the psychological and age characteristics of students in the use of didactic tools is proven on the basis of examples.*

Key words: *pedagogical technology, innovative technology, education, didactic tool, educational efficiency.*

Hozirgi kunda ta'limgan jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limgan samaradorligini ko'tarishga bo'lgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xato xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lism-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lism metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lism muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lism metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lism-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslarini hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlichqa qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lism metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Ta'limga bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lism muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. So'nggi yillarda ta'lism tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lism beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi ta'lism mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lism beruvchi tomonidan ta'lism oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lism jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lism oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Tarbiya fani bugungi kunda talim-tarbiya jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. Tarbiya fani o'qitish jaryonida interfaol metodlardan foydalanish imkonyatlari yuzasidan O'qitish usullari talim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh)¹⁰.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar

¹⁰ Saidov A. Interfaol ta'lism metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma SamDU nashr-2015

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovasion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba o‘quvchilarini bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.¹¹

Interfaol usullarni yana boshqaca ta’riflaydigan bo‘lsak interfaol ta’lim jarayonida dars o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod — ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati, ta’siri ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarini tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat.¹²

Interfaol metodlarni qo‘llashning muayyan shartlarini asoslash ularning didaktik qiymatini oshiradi. Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o‘qituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo‘llamoqda. Ulardan:

- juftlikda ishlash, karusel, kichik guruhlarda ishlash, akvarium, tugallanmagan gaplar;
- aqliy hujum;
- broun harakati;
- daraxt yechimi;
- O‘z nomimdan so‘zlayman;
- rolli o‘yinlar;
- press metod;

¹¹ O‘.Tolipov, D. Ro‘ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2019-149 bet

¹² Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

- O‘z pozitsiyasini egallash;
- munozara;
- debatlar;
- katta davra va boshqalar¹³.

Klaster usuli ishlatish darslarda bolalarga nima beradi? Bolalarni fikrlash qobiliyatini, ularni o‘z fikrlarlarini aytishlarini rivojlantiradi. Bularning hammasi kuzatish natijalarida, yangi bilim olish tajribasida, bir vaqt ichida bir nechta yo‘nalishlarni ko‘rishda, axborotlarni ijodiy jihatdan tahlillashni rivojlantiradi. Klaster metodini darslarning hamma turlarida, har xil mavzularda ishlatsa bo‘ladi. Masalan: o‘quvchilarining darsga kechikishlarini, darsdan keyin uyga kech borishlarini tekshirish uchun ham bu "Klaster" metodidan unumli foydalansak ham bo‘ladi. Aytishimiz mumkin, bu metod dars jarayonida foydalaniladi-ku? Qanday o‘quvchining darsga kelib-ketishini, uyga darsdan so‘ng kech borishini biz bu metod orqali tekshira olamiz? degan bir kichik savol tug‘iladi. Biz o‘quvchilarimizga ularni qiziqtirish uchun oddiy topshiriq beramiz. Ya’ni har biringiz uylaringizdan maktabgacha bo‘lgan masofani qanday yo‘nalishlarda bosib o‘tasiz? Maktabga kelayotganlaringizda nimalarni yo‘lingizda ko‘rasiz (bolalar bog‘chasi, boshqa maktab hovlisi, cho‘milish havzasi, sport maydonchasi, qurilish majmualari v.b.) ya’ni harakatlanish yo‘l xaritangizni chizib keling deymiz.

Interfaol metodlarni “Tarbiya fani”da o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroqbo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, demak, interfaol ta’lim texnologiyalari va uning muhim tarkibiy elementi bo‘lgan interfaol metodlar ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta’minlaydi. Zero, zamonaviy ta’lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi. Bundan ko‘rinib turubdiki, har bir

¹³ Tilavova M.“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”o‘quv qo’llanma M.Buxoro:OOO“Sadriddin Salim Buxoriy ”Durdona,2021-312b.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

muallim yangi texnologiyalardan oqilona foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish kerak bu esa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘yayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Interfaol ta’lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo‘llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov
2. O’tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2019-149 bet
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
4. M.Tilavova "Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi"o‘quv qo‘llanma M.Buxoro:OOO"Sadriddin Salim Buxoriy "Durdona,2021-312b.
5. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
6. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
7. Азимов У. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКСИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ //ТОШКЕНТ-2021. – 2021. – С. 102.
8. Azimov U. A. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AKSIOLOGIYA //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 201-204.
9. Azimov U. YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI TAHLILI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 195-195.